

# Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-may

## Raqamlar:


- 2018 yil yanvar-may oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi - **3682,2 mlrd. so'mni** tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 129,5 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 988,0 ming so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.

2018 yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3682,2 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (31,8 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-may oylarida xizmatlar tarkibi,  
(jami hajmga nisbatan, %)



Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'ngi vaqtarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozirgi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.


### **2018 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



2018 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (144,6 %), moliyaviy xizmatlar (129,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (119,9 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (111,5 %) eng yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

Xizmatlar sohasida xizmat hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi. Jumladan, bozorda yangi turdag'i xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlar, internet savdo, yangi savdo markazlari, mehmonxonalarining tashkil etilishi, ta'lif xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanloving kengayishi shular jumlasidandir.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Savdo xizmatlari ko'rsatilgan umumiylar hajmida eng yuqori hajjni - 1169,8 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ulgurji va chakana savdo tarmoqlarida ushbu xizmatga bo'lgan talabning yuqoriligi bilan izohlanadi.

2018 yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 988,0 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,6 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi



988,0 ming so'm o'tgan  
yilning shu davriga  
nisbatan 104,6 %.



Viloyat statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Mas`ul: A.Abdullayev  
(71) 230-85-35